

## **ABDULLA QAHHOR QISSALARIDA O‘TMISH VA MILLIY OZODLIK HARAKATI.**

*Шомуродова Дилшода*

*ЖДПУ талабаси*

Annotasiya: Ushbu maqolada milliy ozodlik harakati va o‘zbek xalqining mashaqqatli turmushi yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: Ergash qo‘rboshi, Anvar poshsho, Fitrat, mardikorlik, o‘tmish jadidlar, xalq, Vabo, ocharchilik.

Abdulla Qahhor buyuk iste’dod egasi. Adibning hikoyasi yoki qissalarini o‘qigan kitobxon muallifning ichki dunyosi haqida ham bir muncha ma’lumotga ega bo‘ladi. Abdulla Qahhorning "Sinchalak", "O‘tmishidan ertaklar" qissalari o‘zbek adabiyotida juda katta voqea bo‘ldi. Ko‘plab tillariga tarjima qilindi. Xo‘sh "O‘tmishidan ertaklar" qissasi Nega bunchalik mashhur bo‘ldi? Buning sababi nimada? Sababi shuki, Abdulla Qahhor ushbu qissada keltirilgan barcha voqea-hodisalarda bevosita o‘zi qatnashgan va qissada keltirilgan insonlar bilan muloqot qilgan, yana boshqa sababi esa qissa sodda va tushunarli tilda yozilgan. O‘quvchi qissani o‘qiyotkan payti unda keltirib o‘tilgan voqealar bir muncha cho‘pchakdek tuyulishi mumkin. Buning sababi hozirgi yosh avlod ocharchilik, urush, qahatchilik nima ekanligini bilmaydi. "O‘tmishidan ertaklar" qissasida xalqimizning mashaqqatli turmushi, adolatsizlik, nohaqliklarga uchraganini yozuvchi nihoyatda aniqlik bilan tasvirib bergan. Qissaga epigraf qilib Abdulla Oripovning "Munajat" she’ri tanlangan. Epigraf uchun tanlab olingan she’r o‘quvchi uchun tushunilishi qiyinroq bo‘lishi mumkin, lekin mohir yozuvchi bu epigraf orqali qissa nima uchun yaratilganligiga ishora qilgan bo‘lsa ajab emas. Qissani o‘qir ekanmiz, unda tarixiy shaxslar haqida ham gap ketganligini ko‘rib biroz taajjubga tushishimiz mumkin. Misol uchun: Ergash qo‘rboshi, Dukchi eshon, Anvar poshsho va jadidlardan bo‘lmish Fitrat. Tarixdan bilamizki, bu shaxslar ozodlik uchun jon olib jon bergan, hatto Anvar poshsho Turkiyadan kelib milliy ozodlik harakatiga yordam bergan

shaxsdir. Biz ya'ni hozirgi yosh avlod Ergash qo'rboshini qahramon deb hisoblaymiz, lekin qissadagi odamlar undan qo'rqishgan, kezi kelsa uni hukumatga topshirishga ham tayyor bo'lishgan. Nima uchun odamlar yurtning ozod bo'lishini istab harakat qilayotgan insondan bunchalik xavfsirashgan? Ularning nazdida Ergash qo'rboshi zulmkor-u Oqqoshsho adolatli edi-mi?

Bilamizki mustamlakaga aylantirilgan davlatlarda eng avvalo tarix ya'ni milliy urf-odatlar, an'analar, keyin til yo'qotiladi. Bu usul bilan ular xalqning ma'naviyatiga katta zarar yetkazishadi. Bilimsiz bo'lgan xalqni har tomonga burushdan oson ish yo'q. Bizning yurtimiz ham qotib qolgan edi. Agar biron bir jadid yoki ma'rifatparvar inson xalqi uchun yangilik qilmoqchi bo'lsa, unga yov ko'zi bilan qarashar edi. Qissada Muhammadjon qori va Valixon so'fi obrazlari bor. Valixon so'fi obrazini yozuvchi aniq bo'yoqlar yordamida tasvirlaydi. U kelajak avlod bo'lmish yoshlarni savodini chiqarishni emas, balki chala qilib o'qitib bo'lsa ham pulini olishni, obro'yini saqlashni o'ylaydi. Shu payt mulohaza qilishga to'g'ri keladi: ilmsiz odamdan qanday qilib ilm olish mumkin, bu dengizga borib hovuchini shunchaki ochib baliq tushishini umid qilishdek gap-ku! Muhammadjon qori Valixon so'fidan farqli ravishda ancha ilmi inson. U shogirdlariga diniy ilm berish bilan birga dunyoviy ilm ham beradigan odam. "Usuli jadid" yordamida bolalarni 3oyda savodli qilishni niyat qilgan, qishloqqa ilm ma'rifat urug'ini sochmoqchi bo'lgan insonga ham "ma'rifatparvarlar" ro'yhushlik berishmaydi. Xalqimiz orasida "guruch kurmaksiz bo'lmaydi" degan maqol bor. Kimdir yurt bolasini o'qitib undan yaxshi ishlar qilishini kutsa, kimdir shunchaki bu narsani ko'ra olmay hasad qiladi. Bilamizki hasad qalbni qoraytiradi. Hasad huddi "o't" kabidir, inson o'zi bilmagan holda shu o'tni yeydi va o'zini halok qiladi. Qissada Muhammadjon qorini ko'ra olmaydigan Qutbiddin va Husniddin obrazlari bor. Ular hasadi tufayli turli xiylalar bilan, maktabni buzdirishadi, niyatiga yetishdi ham. Xo'sh bundan qanday foyda bo'ldi? Hech qanday. Inson bolasi nimani chin dildan xohlasa albatta maqsadiga erishadi, bordi-yu bu narsani xohlamasa ming bir sabab bo'lsin niyatiga yeta olmaydi. Yurtda Qutbiddin va Husniddinga o'xshagan odamlar o'z nafaslarini yo'lida ilm darhohlarini buzdiraverar ekan xalq jaholat botqog'iga botishi kundek ravshan.

Qissadagi Muhammadjon qori va Qutbiddin o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbat ayniqsa e‘tiborga molikdir:

-Jadidlik urug‘ini sochgani kelganman deng! Hammani to‘rtinchi qilmoqchimisiz?

-Jaholat , Jadidga nima qipti? Jadid yangi, usuli jadid yangi usul ,degan gap , jadidlik kufri?

Bir savol tug‘iladi, nima uchun odamlar yangiliklardan bunchalik qo‘rqishdi? Balki odamlar emas "yurtning kattalari" desak to‘g‘ri bo‘lar. Axir ilmi inson o‘zini xor qilgani, ustidan bosib o‘tishgani yo‘l qo‘ymaydi-ku, agar xalq ham ilmi bo‘lsa Oqqoshshoga o‘xshagan yana ancha hokimiyat egalariga qarshi chiqqan bo‘lar edi. Shu narsani yaxshi anglagan hukumat egalari "jadidlarga qarshi kurashish"ga astoydil harakat qilishgan. Adib o‘z qissasida Furqatning "Ona tili haqidagi " ajoyib fikrlarini ham keltirib o‘tgan.

Maqolaning boshida qissada xalqimizning mashaqqatli turmushi aniqlik bilan tasvir berilgan, deb aytib o‘tgan edim. Tarixdan ma‘lumki 1916-yil 25-iyunda poshsho Nikolay|| ning buyrug‘i bilan " mardikorlikka olish" boshlandi. Bu farmon tub aholini harakatga keltirdi. Bir muncha qo‘zg‘alonlar ham bo‘lib o‘tdi, lekin hukumat shirin yolg‘onlar evaziga bu narsani bosti-bosti qilishga erishdi. Shu siz ham qiyinchilikda yashayotgan o‘zbek xalqi yana bir musibatga duch keldi ya’ni VABOga. Bilamizki Vabo juda xavfli, yuqumli, shu bilan birga davolanishi ancha vaqt talab qiladigan kasallik. Hali tibbiyot yetarli darajada rivojlanmagan, odamlarning turmush kechirishi anchayin qiyin ahvolga tushib qolgan bir paytda "mardikorlikka olish" masalasiga hech kim e‘tibor ham bermay qo‘yadi. Ko‘plab inson ushbu bedavo kasallikdan vafot etishdi. Qolganlar esa bu kasalga chalinmaslik uchun hattoki kasblari bilan ham shug‘ullanmay qo‘yishadi. Bir tomondan kasallik yana bir tomondan qahatchilik bechora xalqni "ta’qib qilar" edi. Odamlar ovqat yo‘qligidan kunjara yeyishga majbur bo‘lishar bu narsadan shishib vafot etishar edi. Shu payt Abdulla Qahorning shogirdlaridan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" dagi voqealarni bir muncha yodga olamiz. Ushbu romanda ham ocharchilik sababli kunjara yeyishar va oxir oqibatda vafot etishardi. Roman qahramoni Robiya Qora ammanikiga ketishayotgan paytida stansiysda yotgan ayolning nima uchun bunday yotganiga qiziqib dadasidan so‘raydi. Dadasi buning sababini uning yoshiga mos tarzda tushuntirib beradi. Yozuvchi bu joylarni juda

ham ta'sirli tarzda tasvirlab beradi-ki , kitobxon o'sha muhitga beixtiyor tushib qoladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,qissa bizga o'tmishimizni ko'zgudek ko'rsatib beradi.Bu qissadan ko'plab ma'naviy ozuqa olamiz. Ushbu qissani yaratgan Abdulla Qahhorga esa minnatdorchilik bildirish vazifamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Абдулла Каххор. Мухаббат.Тошкент.Янги аср авлоди
- 2.Кибриё Каххорова "Чорак аср хамнафас" Тошкент 1987
- 3.О'. Hoshimov " Ikki eshik orasi" Sharq nashriyoti. Toshkent.
- 4."O'zbekiston tarixi" Toshkent .2022